



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



С/БЕРИЕНИКА



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Bozorov Elyor Bobokulovich, Latifjonova Adiba Bobirovna

ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА РЕГИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА

Бозоров Эльёр Бобокулович, Латифжанова Адипа Бобировна

THE INFLUENCE OF ECOLOGICAL FACTORS ON THE REGIONAL DEVELOPMENT OF TOURISM

Bozorov Elyor Bobokulovich, Latifjanova Adiba Bobirovna

Received: March 2, 2026 Revised: March 6 2026 Accepted: March 11, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Globallashib borayotgan dunyoda, bir qancha ekologik muammolar nafaqat turizm sohasi, balki mamlakatdagi ayrim hududlarning o'sishi va rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda bu soha tobora rivojlanib borar ekan, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va atrof-muhit holati hududlarning rivojlanish istiqbolini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lib kelmoqda. Shuningdek, ekologik, muammolar bor hududlarda turistik jozibadorlikning pasayishi, turizm infratuzilmalariga bo'lgan talab ham asta sekinlik bilan pasayib bormoqda. Turizm sohasi iqtisodiy faoliyat olib borish qiyin bo'lgan, masalan, ekologik nuqtai nazardan asrash talab qiladigan hududlarda rivojlanish mumkin. Bunday rivojlanish global barqaror rivojlanish mezonlariga to'liq javob beradi, shu bilan birga, mamlakat madaniy merosi, atrof muhiti kasb hunar va boshqalarni asrashga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida hududlarning ekologik omillarini hisobga olgan holatda, uzoq muddatli va muvozanatli rivojlanishga xizmat qilish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi hamda ekologik muhofaza choralari turizm infratuzilmasiga ta'siri yoritib berildi.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, ekologik omillar, hududiy rivojlanish, mamlakat iqtisodiyoti, tabiiy resurslar.

Аннотация: В условиях глобализации ряд экологических проблем оказывает значительное влияние не только на сферу туризма, но и на рост и развитие отдельных регионов страны. Сегодня, по мере развития этой отрасли, степень использования природных ресурсов и состояние окружающей среды становятся одними из ключевых факторов, определяющих перспективы развития регионов. Кроме того, в регионах с экологическими проблемами наблюдается снижение туристической привлекательности, замедление развития туризма и разрушение природных ландшафтов, что постепенно уменьшает спрос на туристическую инфраструктуру. Сфера туризма может развиваться в регионах, где ведение экономической деятельности затруднено, например, в экологически охраняемых зонах. Такое развитие полностью соответствует глобальным критериям устойчивого развития и способствует сохранению культурного наследия страны, окружающей среды, ремесел и других ресурсов. В ходе исследования освещено влияние экологических факторов регионов на долгосрочное и сбалансированное развитие, эффективность использования природных ресурсов и меры экологической защиты в туристической инфраструктуре.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, экологические факторы, региональное развитие, экономика страны, природные ресурсы.

Abstract: In the context of globalization, a number of ecological problems significantly affect not only the tourism sector but also the growth and development of certain regions within a country. Today, as this sector continues to develop, the level of natural resource use and the state of the environment have become key factors determining the



development prospects of regions. Furthermore, in regions facing ecological challenges, tourist attractiveness declines, tourism development slows down, and natural landscapes degrade, which gradually reduces the demand for tourism infrastructure. The tourism sector can develop in areas where conducting economic activities is challenging, for example, in ecologically protected zones. Such development fully aligns with global sustainable development criteria while contributing to the preservation of the country's cultural heritage, environment, crafts, and other resources. The study highlights the impact of ecological factors in regions on long-term and balanced development, the efficiency of natural resource use, and the role of environmental protection measures in tourism infrastructure.

Keywords: tourism infrastructure, ecological factors, regional development, national economy, natural resources.

■ KIRISH

Hozirgi rivojlangan zamonda, bir qancha ekologik omillarning barcha yo'nalishlarga, sohalarga va mamlakat iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri barchamizga ma'lum. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ko'plab omillarning o'zaro ta'siri asosida shakillanmoqda va bu jarayonda tabiiy resurslardan foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, yo'nalishlar va tizimlar raqamlashib borayotgan bir paytda, ekologik muammolarning yuzaga kelishi, nafaqat mamlakat iqtisodiyoti balki, insonlarning turmush tarzi, hayvonot dunyosi va turli kasalliklar kelib chiqishiga sezilarli darajada katta ta'sir ko'rsatyapti. Shu bilan birga, endigina rivojlanib borayotgan turizm sohasininng bir qancha tarmoqlariga, ayniqsa, tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonining keskin kamayib ketishi va mamlakat iqtisodiyotining tanazzulga uchrashiga sabab bo'lmoqda.

Ekologik omillar (toza havo, manzarali landshaftlar, bioxilma-xillik) hududiy turizmni rivojlantirishning asosi bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri hudud iqtisodiy o'sishi, infratuzilmani yaxshilashga xizmat qiladi. Ekologik toza va jozibador hududlar sayyohlarni jalb etib, barqaror turizm rivojlanishini ta'minlaydi. Butunjahon turizm tashkilotining hisobotiga ko'ra "2022-yilda dunyo bo'ylab sayohat qilgan turistlar soni 900 millionga yilga etgan va bu ko'rsatgich 2021-yil bilan taqqoslaganda, ikki barobarga ko'paygan".

Turizm nafaqat xizmatlarning bir turi sifatida, balki bugungi kunda turizm bozorlarining barqaror rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratishga va unga turdosh bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga imkoniyat yaratmoqda. Shuningdek, mahalliy hamjamiyatning yuqori darajadagi ishtiroki ekoturizm loyihalari barqarorligini oshirishi aniqlandi. Bu joylarda kooperativlar, ekogidlar va hunarmandchilik ustaxonalari tashkil etilishida namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, bunday loyihalar yoshlar va maktab o'quvchilarining ekologik savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tadqiqotda malakali kadrlar etishmasligi, davlat va biznes o'rtasidagi muvofiqlashtirishning sustligi, ekoturizm yo'nalishlarini targ'ib qilishda raqamlashtirish darajasi pastligi kabi qator muammolar ham aniqlangan. Bu masalalar esa, tizimli yondashuvni va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, turizm jahon iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U global yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini tashkil etadi va millionlab insonlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratib, aholi bandligini va daromadini oshiradi. Shu bilan birga, turizm faoliyati noto'g'ri tashkil etilganda

ekologik muammolarni kuchaytirishi va hattoki ko'paytirishi mumkin. Masalan juda ko'p turist oqim bir qancha ekologik muammolarni ya'ni, chiqindilar ko'payishi, havoni ortiqcha ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, yabiiy landshaftlarning buzilishiga hamda bioxilma-xillik kamayishiga olib keladi. Birlashgan millat tashkiloti Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda dunyo bo'yicha xalqaro turistlar soni 1,5 milliard nafarga etgan. 2022-yilda bu ko'rsatgich 900 million atrofida bo'lgan va 2023-yilda keskin tiklanish boshlangan. O'zbekiston sharoitida ham ekologik omillar turizm sohasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Hududiy turizmning barqaror rivojlanishi uchun, tabiiy hududlarning saqlanishi, toza muhit va infratuzilmaning yaxshilanishi zarur. Ayniqsa, ekoturizm yo'nalishlari hududlarning tabiiyligidan to'g'ri foydalanish orqali ularning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois ekologik barqarorlikni ta'minlash va turizmni oqilona tarzda tizimli rivojlantirib borish, bugungi global ekologik muammoli dunyoning dolzarb masalalaridan biri bo'lmoqda.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizmni rivojlantirishda yuzaga kelayotgan ekologik omillarning hududiy rivojlanishga ta'siri masalasi so'ngi yillarda iqtisodiy-geografik va ekologik tadqiqotlarda dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida keng organilmoqda. Ayniqsa, barqaror rivojlanish doirasida turizm faoliyatining atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni alohida e'tirof etilmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik omillar turizm infratuzilmasini to'g'ri shakllantirish, mahalliy aholi farovonligi va turmush tarzini yaxshilash hamda hududiy ixtisoslashuvni belgilashda muhim vosita hisoblanadi.

D.Getz va J.R.Brent Ritchie tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizmning hududiy rivojlanishdagi o'rni kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Ularning fikricha, turizmni barqaror rivojlantirishda ekologik resurslarning sifati va saqlanish darajasi asosiy omil bo'lib, aynan tabiiy landshaftlar, bioxilma-xillik va ekologik muhitning tozaligi hududning raqobatbardoshligini belgilaydi[1].

Tadqiqotchilar ekologik muvozanat buzilgan hududlarda turizm oqimi qisqarishini, bu esa hududiy iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Shuningdek, ular ekologik menejment tizimlarini joriy etish orqali turizmning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydilar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNWTO



hisobotlarida barqaror turizm va ekologik omillarning hududiy rivojlanishga ta'siri keng yoritilgan. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, ekologik jihatdan mas'uliyatli turizm modeli mahalliy infratuzilmani takomillashtirish, yashil ish o'rinlarini yaratish hamda tabiiy meros obyektlarini saqlash orqali hududlarning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. Tashkilot konsepsiyasida "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida turizmni rivojlantirish hududiy tengsizlikni kamaytirish va chekka hududlarni iqtisodiy aylanishga jalb etishda samarali vosita sifatida baholanadi [2]. Ayniqsa, ekoturizm yo'nalishlari ekologik resurslardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish orqali hududiy daromadlarni oshirish imkonini beradi.

M.R. Usmonovning "Turizm geografiyasi" asarida turizmning tabiiy-geografik omillar bilan uzviy bog'liqligi chuqur tahlil qilingan. Muallifning fikricha, iqlim sharoiti, relef, suv resurslari va biologik xilmaxlilik turizm turlarining hududiy joylashuvini belgilovchi asosiy omillardir [3]. Ekologik barqarorlik ta'minlanmagan hududlarda turizmning rivojlanishi qisqa muddatli bo'lib, uzoq istiqbolda iqtisodiy pasayish xavfini yuzaga keltiradi. Usmonov turizmni rejalashtirishda ekologik sig'im ko'rsatkichlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi hamda hududiy rejalashtirishda tabiiy resurslardan kompleks foydalanish tamoyillarini ilgari suradi. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili, turizm sohasi tabiiy omillar va ekologik jihat bilan uzviy bog'liqligi bu sohaning hududlarning barqaror rivojlanishiga ta'sirini belgilab beradi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ekologik omillar turizmni rivojlantirishning nafaqat tabiiy asosi, balki hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik omildir.

Ekologik muvozanatni saqlash, yashil infratuzilmani shakllantirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hududlarning raqobatbardoshligini oshiradi hamda uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Demak, turizmni hududiy rivojlantirish siyosatida ekologik omillarni ustuvor yo'nalish sifatida inobatga olish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida bir nechta umumilmiy va maxsus metodlardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez metodi orqali ekologik omillar (atrof-muhit sifati, tabiiy resurslar holati, ekologik xavfsizlik darajasi) hamda turizm rivoji ko'rsatkichlari (turistlar oqimi, xizmatlar hajmi, bandlik darajasi) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy jihatdan yoritildi va umumlashtirildi. Statistik tahlil metodi yordamida hududlar kesimida turizm ko'rsatkichlari va ekologik indikatorlar o'rtasidagi dinamik o'zgarishlar o'rganildi.

Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida turizm oqimining o'sishi, infratuzilma rivoji va ekologik holat ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Bu usul turizmning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sirini miqdoriy baholash imkonini berdi. Shuningdek, taqqoslash (komparativ) metodi asosida ekologik jihatdan barqaror turizm modeli yo'lga qo'yilgan xorijiy mamlakatlarning tajribasi o'rganildi va ularning natijalari mahalliy aholi sharoiti bilan qiyoslandi. Bu metod hududiy rivojlanishda ekologik boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Tizimli yondashuv asosida

turizm sohasi hududiy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari savdo, transport xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Bu yondashuv ekologik omillarning nafaqat turizmga, balki hududning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ta'sirini sezilarli darajada aniqlash imkonini berdi. Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik usullar uyg'unligida olib borildi hamda ekologik omillarning turizm orqali hududiy rivojlanishga ko'rsatadigan ta'sirini har tomonlama yoritishga xizmat qildi.


■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda turizmni rivojlantirib borishda, ekologik omillarning hududiy rivojlanishga ta'sirini o'rganish uchun bir nechta ilmiy yondashuvlarga tayanildi. Mavzuga oida ilmiy adabiyotlar va mavjud ma'lumotlar tahlil qilindi va ular asosida turizm hamda ekologik omillar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Shuningdek, tahlillar yordamida turizm rivojlangan hududlar bilan turizm unchalik rivojlanmagan hududlarning ekologik holati o'zaro solishtirildi. Ushbu tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usuli ham qo'llanilib, tabiiy resurslar, turistik oqim va ekologikholatga oid ko'rsatkichlar o'rganiladi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda turizmni rivojlantirish jarayonida ekologik omillarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turistik hududlarning tabiiy muhiti, tabiiy resurslarning saqlanganligi hamda ekologik tozaligi turistlar uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham ekologik muhit holati turizmning rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar hududda ekologik barqarorlik to'liq ta'minlangan bo'lsa, bu hududga keluvchi turistlar soni ham sezilarli tarzda ortadi va natijada hududiy iqtisodiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratiladi. Turizm va ekologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirish uchun ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar keltirilgan. Ularga ko'ra, turizm bir tomondan tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan bo'lsa, ikkinchi tomondan ushbu resurslarni muhofaza qilishni ham talab etadi. Ya'ni turizmning barqaror rivojlanishi atrof-muhitni asrash bilan chambarchas bog'liqdir.

Quyidagi rasmda turizm faoliyatining ekologik muhitga ijobiy va salbiy ta'sirlarini ko'rsatishi tasvirlangan. Xususan, turizm rivojlanishi hududda infratuzilmaning yaxshilanishi, tabiiy hududlarni muhofaza qilishga e'tiborning kuchayishi hamda mahalliy aholi bandligining oshishi kabi bir qancha ijobiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, turistik oqimning ortishi tabiiy resurslarning ortiqcha ishlatilishi, chiqindilar miqdorining oshib ketishi hamda ekologik muvozanatning buzilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, turizmni rivojlantirish jarayonida ekologik omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muhofaza choralari kuchaytirish hamda barqaror turizm tamoyillarini joriy etish hududiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol kasb etadi.



1-rasm. Turizm rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini ko'rsatuvchi konseptual model[7]

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ekologik omillar turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Hududning ekologik jihatdan holati, tabiiy resurslarning mavjudligi hamda atrof-muhitning tozaligi turistik hududlarning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tabiiy landshaftlar, milliy bog'lar, qo'riqxonalar va ekologik toza hududlar turistlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil natijalariga ko'ra, ekologik jihatdan toza bo'lgan hududlarda turizm infratuzilmasi tezroq rivojlanadi, sababi ekologik toza muhitda turistlar oqimi yuqori bo'ladi. Bu esa hududiy iqtisodiyotning rivojlanishiga, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilishiga hamda ularning daromadlarini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ekologik turizm (ekoturizm) rivojlanayotgan hududlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, turizm faoliyatining ortishi ya'ni ko'p sayyohlarning tashrif buyurishi, ayrim ekologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Turistlar sonining ortishi chiqindilar miqdorining ko'payishi, tabiiy hududlarning degradatsiyasi va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu sababli turizmni rivojlantirish jarayonida ekologik nazoratni kuchaytirish, ya'ni ehtyotkorlik qoidalariga rioya qilish, tabiatni muhofaza qilish choralarini amalga oshirish va barqaror turizm tamoyillarini joriy etish muhim hisoblanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, turizmni ekologik jihatdan to'g'ri tashkil etish orqali salbiy ta'sirni yo'qotib, hududiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Ekologik muhitni saqlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirish orqali hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga erishish mumkin.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilish mumkinki, ekologik omillar turizmni rivojlantirishda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, hududning tabiiy resurslari, ekologik barqarorligi hamda atrof-muhitning holati turistik hududlarning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Aynan ekologik muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, faqatgina turizmni emas balki, atrof-muhit holatini ya'ni ekologik holatni yaxshilash muhim omillardan biridir. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish, ekologik madaniyatni oshirish va barqaror turizm tamoyillarini joriy etish hududiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, ekologik omillarni hisobga olgan holda turizmni rivojlantirish hududlarning va mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish hamda insonlarning turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli turizmni rivojlantirish strategiyalarida ekologik barqarorlik masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Bozorov Elyor Bobokulovich, Qarshi davlat universiteti dotsenti, i.f.f.d. (Phd) / Бозоров Эльёр Бобокулович, доцент Каршинского государственного университета, (Phd) / Bozorov Elyor Bobokulovich, associate professor of Karshi State University, PhD.

E-mail: elyor.bozorov@gmail.ru

ORCID: 0000-0003-4403-4504



2. Latifjonova Adiba Bobirovna Qarshi davlat universiteti o'quvchisi / Латифжанова Адиба Бобировна, студентка Каршинского государственного университета / Latifjonova Adiba Bobirovna, student of Karshi State University
E-mail: latifjonovaadiba28@gmail.com
ORCID: 0009-0007-7912-9593

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). Tourism for Sustainable Development / Sustainable Tourism Development (2017–2023). Madrid, Spain: UNWTO.
2. Usmonov, Sardor (2023). Importance of Rural Tourism Development in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(2).
3. Butler, R. W. (1980). *The Concept of a Tourist Area Life Cycle*. Canadian Geographer.
4. Honey, M. (2008). *Ecotourism and Sustainable Development*. Washington DC: Island Press.
5. Weaver, D. (2006). *Sustainable Tourism: Theory and Practice*. Oxford: Elsevier.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi PQ-475-son qarori. *Turizm va madaniy meros sohaslarini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*.
7. https://www.researchgate.net/figure/A-conceptual-model-shows-the-impacts-of-tourism-development_fig1_381735345



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz